

TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINING QONUNIY-HUQUQIY MANBASHUNOSLIGI VA ULARNING AHAMIYATI

Nilufar Niyozova

Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti, f.f.n.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lism tizimi, uning qonuniy-huquqiy asoslari, rivojlantirish imkoniyatlari, strategik yuksaltirish mexanizmlari, shuningdek, unga doir me'yoriy hujjatlarning manba sifatida o'rganilishi, sohaga doir huquqiy asoslar mohiyatan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lism, tizim, huquqiy asos, me'yoriy hujjat, rivojlantirish, manba, malakali kadr.

ABSTRACT

This article provides an overview of the education system in the Republic of Uzbekistan, its legal foundations, development opportunities, strategic mechanisms for improvement, as well as a study of the relevant regulatory documents as a source and legal basis for the industry.

Key words: education, system, legal basis, normative document, development, source, qualified personnel.

АННОТАЦИЯ

В данной статье дается обзор системы образования в Республике Узбекистан, ее правовые основы, возможности развития, стратегические механизмы совершенствования, а также исследование соответствующих нормативных документов как источника и правовых основ отрасли.

Ключевые слова: образование, система, правовая основа, нормативный документ, развитие, источник, квалифицированные кадры.

KIRISH

Ta'lism-tarbiya tizimi mamlakat taraqqiyotida muhim o'rinn tutganligi bois, mamlakatlar o'z rivojlanish bosqichida malakali mutaxassislar va salohiyatli kadrlarga tayanadi. Ta'lismni rivojlantirishga e'tibor davlatchilik tarixida avvaldan mavjud bo'lib, bugungacha bo'lgan taraqqiyot darajalarini me'yoriy hujjatlar asosida o'rganish hamda tatbiq etish o'ziga xos manbashunoslikni namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Xolbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga

yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat” [1]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jahon andozalariga mos kadrlarni tayyorlash bu boradagi me'yoriy hujjatlar mazmunini manba sifatida o‘rganish ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan maqolamiz mavzusining dolzarbliги quyidagilardan iborat:

Birinchidan, pedagoglar innovatsion texnologiyalar asosida barkamol avlodning intellektual salohiyatini shakllantirishda tarixiy tajribalarga tayanish, ajdodlarimiz o‘gitlariga mas’uliyatli bo‘lishi kerakligi muhimdir.

Ikkinchidan, Yunon donishmandi Aflatun aytganiday, «Farzandlarimizning ilm va adabiyotini o‘zimizning ilm va adabiyotimiz bilan cheklamaylik, ularni kelgusi zamon uchun tayyorlaylik, chunki ular bizning zamonamizga tegishli emas, ular kelgusi zamon odamlaridir». Shu bois ularning ta’lim-tarbiyasiga xos muammolar yechimini topishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Uchinchidan, zamonaviy sharoitda pedagog kadrlar axborotni tahlil qilish, haqqoniy, an'anaviy va ustuvor dalillarni aniqlashda nafaqat kasbiy yondashuv, balki sohaga doir manbalar mazmunini chuqur anglab yetmog‘i zarur.

To‘rtinchidan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularni o‘qitish, intellektual salohiyatini yuksaltirish, bilimlarini takomillashtirish darajasini pedagoglarning saviyasi hamda pedagogik mahorati bilan ham belgilanadi. Buni o‘rganish va tatbiq etish davrning muhim masalalaridan biridir.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarining qonuniy-huquqiy asoslari soha manbashunosligining muhim dalilidir. Yurtimizda maktab ta’limi bir qancha – o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarida olib boriladi. Bu ham fuqarolarimizning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar qonun oldida tengligiga doir Konstitutsiyaviy qoidaga og‘ishmay amal qilinayotgani, shuningdek, davlat yoshlarimizning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini qat‘iy ta’minlab kelayotganining yana bir isboti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yurtimizda har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqining kafolatlanishi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat va jamiyatning madaniy, ilmiy hamda texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 53 moddasida belgilangan[2].

Ta’lim-tarbiya tizimida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni eng asosiy manba hamda me'yoriy hujatlardan biridir. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun fuqarolarga nafaqat ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy

asoslarini belgilaydi, balki har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'analarimizga, ilg'or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, bor kuch va imkoniyatlar shu yo'lda safarbar etilib kelinmoqda.

2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan bo'lib ushbu Qonunda ta'lim olish huquqi quyidagicha ta'minlanishi berilgan:

“-ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

-ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

-ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

-kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

-umumiyo'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

-oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi” [3].

Bugungi kunda mamlakatni malakali mutaxassislar va salohiyatli kadrlar bilan ta'minlash ustuvor vazifa sanaladi. Bunda ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalari katta ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, yuksak malakali, zamon talablari va jahon andozalariga mos kadrlarni oliy ta'lim tizimida tayyorlash oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'limni isloh qilish printsiplarida, zamonaviy kadrlarni tayyorlash, yuqori malakaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tarkibini kengaytirish, xorijiy tajribalarni o'rganish, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash yotadi. Bu borada mamlakatimizda bir qator Qarorlar qabul qilingan bo'lib, bularning barchasi oliy ta'limni isloh qilish printsiplarini aks ettiradigan asosiy manba hisoblanadi. Muhim tomoni shundaki, bugungi davr pedagoglari bu Qarorlar mazmuniga faqatgina sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujat deb emas, balki faoliyatining asosiy dasturamali hamda manbasi sifatida yondoshmog'i zarur.

Oliy ta'limni isloh qilish bo'yicha 2017 yil 20 aprel va 27 iyulda qabul qilingan Prezident Qarorlari muhim ahamiyatga ega. Qarorlar mazmunida, oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli

mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida oliy ta'lif tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar etib belgilandi [4].

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta'lif tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida qator vazifalar belgilandi[5].

Maqolamiz kontekstida ta'lif va fan sohasini rivojlantirish 2017 yil 7 fevraldag'i Farmoni bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligi va bu ham ta'lif-tarbiya jarayonining muhim manbasi sifatida ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratdik.

Harakatlar strategiyasining 4 yo'nalishi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb belgilangan. Mazkur yo'nalishning 4.4. bandi "Ta'lif va fan sohasini rivojlantirish"ga bag'ishlangan. Yo'nalishda belgilanishicha, uzluksiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash; -ta'lif muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;..." va h.k.vazifalar ko'rsatilgan [6]. Ta'lif tizimini innovatsion rivojlantirish respublikamiz sohalarida kadrlar bilan qamrovni samarali tashkil etishning muhim mezoni bo'lib, yaqin vaqtarda, xususan "2026 yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish. ...Davlat oliy ta'lif muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lif shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish" tatbiq etilmoqda[7]. Bunday chora-tadbirlar istiqbolda yaxshi samara berishi shubhasiz.

XULOSA

Ta'lif-tarbiya jarayonlarining manbushunosligiga bag'ishlangan maqolamiz ma'lumotlaridan quyidagi xulosalarni berish mumkin.

1.Ta'lif-tarbiya jarayonlarini manbushunoslik nuqtai nazardan o'rganish pedagoglar faoliyatida muhim mezon bo'lib, ularning islohotlardan xabardorligini ta'minlaydi;

2.Barkamol avlod ta'lim va tarbiyasi mamlakat taraqqiyotida muhim mexanizm bo'lib, unga doir manbalar mazmunini anglash istiqbolda malakali kadrlar tayyolash salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

3.Harakatlar va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyalarini o'rganish zaruriyati professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyati takomili, faoliyatga doir yo'l-yo'riqlarni aniqlashga hamda yangiliklar yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi. T.:O'zbekiston, 2018. 72-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . T.: O'zbekiston, 2023. 21-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabrь. <https://lex.uz/docs/5013007>
4. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017 yil 20 aprelъ. "Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 21 aprelъ soni.
5. "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son.
6. 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. T.: Ma'naviyat, 2017. 322-328 betlar.
7. "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni. 28.01.2022 yil. <https://lex.uz/docs/5841063>.